

## MADINABONU SHE'RLARI TO'PLAMI

**Madinabonu Ismonjonova**

*Chortoq tumani 31-maktabning 9-sinf o'quvchisi*

### **BUVIJONIM**

Uyimizning fayzisiz dilcash buvijon,  
Maktabimmiz faxrisiz aziz buvijon.  
Ilim marifatda ziyo taratib,  
Ko'plab shogirdlarni yetakladingiz.  
Arifmetik amallarni doim o'qtirib,  
Ammamni ham ustoz qilib qo'ydingiz.  
Nabira shoggirdlar faxrini ko'ring,  
Baxtimizga doim sog'-omon bo'ling.  
Men ham sizdek ustoz bo'lgan chog'imda,  
Shodu hursand bo'lib yonimda turing.

### **ONAJONIM**

Onajon onajonim  
Siz mening mehribonim.  
Oq yuvib oq taraysiz,  
Menga juda yoqasiz.  
Mehringiz misli daryo,  
So'zingiz bolbir go'yo.  
Hammaga mexribonsiz,  
To'g'ri yo'lga boshlaysiz

### **ONA VATANIM**

Ona vatan jon vatan  
So'lim gulshan bog' vatan.  
Bag'ringda unub -o'sib,  
Noming oqlay men vatan.  
Mehribonim tog' vatan,  
Jannatmakon bog' vatan.  
Tinchlik abadiy bo'lib,  
Gulla yashna ey vatan.

### **BAHOR**

Yetib keldi betakror bahor,  
Endi gullar ochilar nahor.  
Dashqozonda qaynar sumalak,  
Yomg'irdan so'ng chiqar kamalak.  
Ana tog'ni qaranglar  
Qizil ro'mol o'rabdi.

Qir adir-u dalalar,  
Yashil kuylak kiyibdi.

**K I T O B I M.**

Javondagi kitobim,  
Mehri daryo oftobim.  
Bilimlarga kondursan,  
Mazmunga makondirsan.  
Kitob ko'pdir hilma-hil  
Ko'p o'qishni odat bil.  
Eng yaqin do'stim sirdosh,  
Menga bo'l doim yo'ldosh.

**VATANIMIZ QALQONLARI**

Vatanimiz qo'riqlar,  
Jassur o'g'lon yigitlar.  
O'z ishin puxta qilar,  
Mardu –maydon yigitlar.  
Zirxli tanklarda ular,  
Na'ra tortgan sher kabi.  
Burchlarini bajarar,  
Dovyurak arslon kabi.  
Siz borsizki biz tichmiz,  
Oilammiz hotirjam.  
Har qadamda hushyorsiz,  
Chegarammiz mustaxkam.

**DADAJONIM.**

Uyimmizning chirog',  
Boyligimmiz bulog'i.  
Suyangani togimiz,  
Dadajonim o'zingiz.  
Omon bo'lihg bor bo'ling,  
Xamisha sog'lom yuring.  
Oilammiz baxtiga  
Doim milioner bo'ling.

**SO'NGGI QO'NG'IROQ.**

Yuraklarda zo'r titroq,  
Bugun so'nggi qo'ng'iroq.  
Chalinar juda yangroq  
Shoshmay turgin qo'ng'iroq.  
Bitiruvchi qalbini  
Har bir zarbing ezadi.  
So'nggi maktab bag'rida,

Ko'zlari yoshlanadi.  
Shoshmay turgin qo'ng'iroq,  
O'qishga kirsin opam.  
Chalinmay tur qo'ng'iroq,  
Oliygox kirsin akam.  
Shodon kulib bizlarni,  
Kuzatasan qo'ng'iroq.  
Bir sinf ulg'aytirib,  
Kutib olasan qo'ng'iroq.

### **YOZ ZAVQI**

O'yin qizg'in xavo soz,  
O'lkammizda issiq yoz.  
Quyosh ko'kda nur sochar,  
Mevalar boldek pishar.  
Qirlarda yuguramiz,  
Soylarda cho'milamiz.  
Qo'y ortidan chopqillab,  
Bog'larni ham kezamiz.

### **OLTIN KUZ.**

Kuz kelganda mevalar,  
Boldek yetilib pishar.  
Uzum olma bexilar,  
Xirmon qilib uzilar.  
Salom senga oltin kuz,  
Hush kelibsan o'lkamga.  
Maftunkorsan go'zal kuz  
Risq keltirding uyumga.  
Yig'im-terim faslisan,  
Hashar elga yarashar.  
Oppoq paxta naslisan,  
Mexnat qilsang yarashar.

### **ONA TILIM-BUYUK TOG'IM.**

Ona tilim sarchashmang sarhush dilim  
Sendan kamol topganlar-ku oldi bilim.  
Ona tilim senla bugun mag'rur tilim  
Sen borsanki xalqi buyuk yashar elim .  
Ona tilim buyuklikda eng baland tog'san ,  
Boqiysan yurtimning iftihorisan .  
Sen borsan til boyligi ,dil boyligidir  
Ona tilim ma'naviyat gavharidirsan .  
Ona tilim sen millat g'ururidirsan ,

Yashayver umriboqiy iftixorimsan.

Sen borsan so'zimda sehr bor tilimda hikmat,

Ona tilim buyuklikda eng baland tog'san

**BAXTLI BO'LING AMMAJON.**

Farishtaga o'hshaysiz

Oq libosiz muborak.

Yonizdagi mehribon,

Kiyov bola muborak.

Yangi ota,yangi ona,

Uylaringiz muborak.

Baxt qasrini quryapsiz,

To'ylaringiz muborak.

Ammajon baxt qasringiz,

Doim bo'lsin mustaxkam.

Qalbizdagi orzuyiz,

Ushalsin bo'lib ko'rkam.

Omad quvsin izma- iz,

Tole'ingiz kulsin bekam.

Doim bo'ling baxtli qiz

Havas qilsin taxtli qiz.

**YANGI YILIM YAXSHI YILIM.**

Bayramlarning ichida

Eng yaxshisan yangi yil

Shuning uchun zo'r ruhda

Kutib olaman har yil

Yangi yilim yaxshi yilim

Kirib kelgin doimo

Yillarning eng sarasi

Bo'lib kelgin doimo.

**MAKTABIM**

Jonajonim maktabim,

Bilimga kon maktabim.

Bugun o'zgachadirsan,

Quchog'ing keng ochgansan.

**SHE`RIYAT SULTONI**

She`riyat gulshanida dong'i taralgan

Alisher Navoiy farzandlarimiz

Bundan faxrlanib ayta olaman

Buyuk Navoiyning izdoshlarimiz

Bobojon qasringizga qadam qo`yyapman,

Orzuim Nodira Zulfiya bo`lish

Bobo izingizdan qadam bosyapman,  
Kelajak ishongan shoira bo`lish.

**YOZ ...**

O`lkamizga yoz keldi ,  
Bog`lar to`ldi mevaga.  
Gulzorda gullar kuldi,  
Solib qo`ydim vazaga  
Bog`imizda juda ko`p ,  
Sarhil mevalar pishdi  
Buvijonim ulardan,  
Quritib turshak qildi.